

бутуниттифок референдумини ўтказишга қарор қилиниши орқали ижтимоий-сиёсий турмушни ўзгартириш масалалари аҳоли ўртасида ҳам тарғиб этила бошланди. Натижада баъзи бир ҳудудларда аҳоли турмуш шароитининг микдорий кўрсаткичларини ишлаб чиқиш стратегик концепциялари илгари сурилди. Чунки ҳар бир мамлакат қандай сиёсий ва ижтимоий ҳаракатларни амалиётга жорий этишидан қатъий назар бош мақсад аҳоли манфаатлари унинг турмуш даражасини яхшилаш фаровон ҳаётнинг стратегик концепцияси ҳисобланади. Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, аҳоли турмуш даражасининг яхшиланиши ҳудуддаги саноат корхоналарини бевосита ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш самарадорлигининг миллий хусусиятларига давлат томонидан қабул қилинадиган чора-тадбирлар ҳамда аҳолининг уларга нисбатан дунёқарашларига боғлиқ бўлади. Лекин, бу йилларда вилоятнинг барча саноат шаҳарларида аҳолининг кундалик турмуши учун узоқ муддатли фойдаланадиган буюмлар билан таъминланишида айрим яъни уй телефонлари, автомобилларини ҳисоблаб санаб ўтиш мумкин. Қолган

ахборот узатувчи ва қабул қилувчи, маиший техника жихозлари энди кириб келаётган эди.

Шу билан биргаликда коммунистик мафкуранинг бундан буён мамлакатнинг турмуш фаровонлигини енгиллатишига ёрдам бера олмаслиги бозор иқтисодиётига асосланган тамойилларни ишлаб чиқиш иқтисодий демократиянинг аҳоли фаровонлиги учун янгича миллий ғоя ва мафкура кераклиги халқ фаровонлиги учун зарур стратегик концепциядир.

Мустақиллик йилларида вилоят иқтисодиётининг ҳудудий тузилмаларини такомиллаштириб борилиши иттифокдош республикалар билан ҳамкорлик масалалари ҳудуд аҳолисининг дунёқарашда бир неча бор илгари сурилади. Сабаби 1991 йил 17 мартда Ўзбекистон ССРда бўлиб ўтган Референдумда қатнашган аҳолимиз мустақил эркин давлатнинг фуқароси бўлиши ва тенг имкониятларга эга бўлган янгиланаётган давлат қуриш учун 93 фоизи Ўзбекистоннинг суверен Республика сифатида ривожланишини ёқлаб овоз бериши уларнинг эркинлик, ҳурлик учун сиёсий ҳаракатларидаги дастлабки қадамларидан бири эди.

Адабиётлар

1. Рафиқов Қ. Кучли ижтимоий сиёсатнинг Ўзбекистонга хос тажрибаси. / "Халқ сўзи". 2018 йил 14-апрел. № 74, (7002).
2. Каримов И.А. "Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида". -Т.: "Ўзбекистон", 2011, 47-49-б.
3. Навоий вилояти ҳокимлиги архиви. 100-фонд, қайд рақами 24-рўйхат, 1-иш, 19-б.
4. Навоий вилояти ҳокимлиги архиви. 100-фонд, қайд рақами 24-рўйхат, 1-иш, 22-б.
5. Иноятлов С., Ражабов Қ., Ибрагимов Х. Навоий саҳро бағридаги мўжиза- шаҳар.-Тошкент: "Ўзбекистон", 2008. 62-б.
6. / "Дўстлик байроғи" 1991 йил 3 октябрь № 12, 1-б.
7. Зайнутдинов Ш. Некоторые теоретические вопросы экономических реформ // "Общественные науки в Узбекистане", 1997. №5. -С.5.
8. / "Дўстлик байроғи" 1991 йил 16 март №-33 (1825), 2-б.
9. Абдуллаев Р.М., Рахимов М.А., Ражабов Қ.К. Ўзбекистон тарихи (иккинчи китоб). -Т.: "Ўзбекистон". 2019, 461-б.

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада мустақиллик йилларида Ўзбекистонда, жумладан Навоий вилоятидаги иқтисодий, ижтимоий, маиший турмуш шароитидаги масалалар, вилоятнинг ижтимоий аҳоли, озиқ-овқат маҳсулотларини қимматлашуви ва саноат маҳсулотлари билан таъминланишидаги камчиликлар ва ўзгаришлар, олиб-сотарлик, чайковчилик, халқнинг ижтимоий турмушидаги янгиланишлар ва бу масалаларни олдини олишга қаратилган қарашлар илгари сурилган. Шунингдек, бозор иқтисодиёти шароитида иқтисодий концепциялар ёритилган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье в годы независимости рассмотрены вопросы экономического, социально-бытового положения в Навоийской области, социального положения региона, недостатков и изменений в снабжении продовольственными и промышленными товарами, спекуляции, обновлений в общественной жизни. Выдвинуты мнения людей и взгляды, направленные на предотвращение этих проблем. Также освещены экономические концепции в условиях рыночной экономики.

SUMMARY. In this article, in the years of independence, the issues of economic, social and household conditions in Navoi region, the social situation of the region, shortcomings and changes in the supply of food products and industrial products, speculation, updates in the social life of the people and views aimed at preventing these issues have been put forward. Also, economic concepts are covered in the conditions of the market economy.

TOG'LI HUDUDLARDA TURIZM VA REKREATSIYA XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING BA'ZI MASALALARI

T.J.Jumaev – *geografiya fanlari doktori professor*
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Sh.B.Qurbonov – *dotsent*

E.D.Xamdamirov – *1-bosqich tayanch doktorant*
O'zbekiston milliy universiteti

Tayanch so'zlar: turizm, rekreatsiya, tog' turizmi, tog'li hududlar, tog' tabiati, tog' ma'muriy tumanlari, tog' xo'jaligi, barqaror rivojlanish, tog'li hududlar iqtisodiyoti.

Ключевые слова: туризм, рекреация, горный туризм, горные территории, горная природа, горные административные районы, устойчивое развитие, экономика горных регионов.

Key words: tourism, recreation, mountain tourism, mountain territories, mountain nature, mountain administrative regions, sustainable development, economy of mountain regions.

Kirish. Jahonda turizm va rekreatsiyani rivojlantirish imkoniyatlari va muammolari, uning hududiy tashkil etilishi masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bunda hududlarning turistik va rekreatsion resurslarini baholash, iqtisodiyotning boshqa yo'nalishlari bilan uyg'unlikda rivojlantirish imkoniyatlarini asoslash, turistlar va dam oluvchilarni jalb qilish uchun kerak bo'lgan infratuzilma komplekslarini loyihalashtirish, aholining turistik sayohatlarga bo'lgan istiqbol talablarini o'rganish va prognozlashtirish, turizm va rekreatsiyaning hududlar iqtisodiyotida tutgan o'rini tahlil qilishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda turizm va rekreatsiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha bir qator

chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida turistlar oqimini shakllantirish va ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari dasturi"da "Ichki turizm yo'nalishida faoliyat yurituvchi turoperatorlar bilan hamkorlikda respublikaning barcha hududlari qamrab olingan arzon narhlardagi ichki turizm mahsulot (turpaket) larini ishlab chiqish hamda ularni joylarda keng targ'ib qilish" yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan [1]. Bu borada, jumladan, O'zbekistonda hududlardagi turizm, shuningdek rekreatsiya

ob'ektlarini inventarizatsiya qilish, mazkur ob'ektlarga turistlar oqimini jalb qilish choralarini ishlab chiqish, mahalliy, milliy va xalqaro ahamiyatdagi diniy turistik marshrutlarni loyihalash, ularning kompleks dasturlari va xaritalarini yaratish, joylarda turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini oshirish yo'llarini asoslashga qaratilgan ijtimoiy geografik tadqiqotlarni o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishning maqsadi va vazifalari. O'zbekiston tog'li hududlarida turizm va rekreatsiya xo'jaligini rivojlantirishning iqtisodiy-geografik asoslarini o'rganish ishning maqsadi hisoblanadi. Maqsaddan kelib chiqqan holda, qo'yidagi tadqiqot vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan: 1) Tog', tog'-oldi, tog'li hududlar atamalarining mazmun-mohiyatini o'rganish; 2) O'zbekiston tog'li hududlarida turizm va rekreatsiyani rivojlantirishda geografik omillarning roli va ularning mazmun va mohiyatini ochib berish.

Asosiy qism. Insoniyatning barcha tarixiy davrlarida aholining tog'li hududlarga va tog'lardan tekisliklarga ko'chishi to'xtovsiz davom etgan. Ularning ko'pchiligi, ayniqsa, so'nggi ikki-uch asrda tog'li hududlarga hordiq chiqarish, dam olish maqsadida borgan. Shu munosabat bilan asta-sekin tog' turizmi va rekreatsiyasi shakllangan va tez rivojlangan. Tog' turizmi o'zida inson faoliyatining keng sohalarini birlashtiradi. Mazkur g'oyat xilma-xil tarmoq tog' aholisi va iqtisodiyoti, atrof muhitiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadigan asosiy tarmoqlardan biriga aylandi. Turizmga tog' rayonlarida o'zgarishlar katalizatori sifatida doimo katta e'tibor qaratilgan. So'nggi o'n yilliklarda dunyo tog' turizmida kishilarning tog'larga mavsumiy va doimiy yashashga ko'chib borishi, ya'ni komfortga yo'naltirilgan migratsiya, qulay dam olishga yo'naltirilgan turizmning yangi yo'nalishining shakllanishi va rivojlanishi sodir bo'ldi [2]. Bu noyob hodisa tog'larning jozibadorligi va maftunkorligi, go'zal tog' tabiatining inson salomatligiga ijobiy ta'siri bilan izohlanadi. Tog' hududlarining borib-kelishga qulayligi turizm va komfortga yo'naltirilgan migratsiya rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, ular harakatlarga katta erkinlik beradi, tog'larga va aksincha tekisliklarga tovarlar oqimini ko'paytiradi. Turizm va komfortga yo'naltirilgan migratsiya tog'larga ijobiy o'zgarishlarni olib keladigan kuch va omilga aylanishi mumkin. Lekin mazkur hodisalarni boshqarish strategiyasi nafaqat iqtisodiyotning boshqa sektorlari bilan, shuningdek, transport va boshqa infratuzilmalar, ta'limning turli shakllari, hududiy rejalashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlari va tog' mintaqalari rivojlanishining boshqa jihatlarini bilan integratsiyalashishi maqsadga muvofiq.

Hozirgi vaqtda dunyoning ko'plab mamlakatlari iqtisodiy o'sish va rivojlanish nuqtai nazaridan turizmni mamlakat hududiy siyosatining eng muhim integral jihati sifatida ko'radilar. Turizm nafaqat iqtisodiy manfaat va bandlikni oshirish vositasi va odatdagi iqtisodiy faoliyat turi, balki uning asosiy kapital qo'yilmalarni talab qiladigan xizmat ko'rsatishning keng turi hamda kishilarning ommaviy va kompleks o'zaro ta'sirini tashkil etadi. Tog' yo'nalishidagi ommaviy turizm, madaniy turizm, sog'lomlashtirish turizmi, ekoturizm, sport turizmining ko'plab turlari bir-biridan farq qiladi. Faoliyatning bunday keng xilma-xilligi mavjudligida tog' turizmining ko'p jihatlarini ya'ni ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va ekologik tarkibiy qismlari tog' aholisi va tog' atrof muhitiga foyda keltirishi uchun o'zaro muvofiqlashtirilishi lozim.

Global miqyosda turizmning jadal rivojlanishga olib keladigan qator omillar mavjud bo'lib, ular ko'pchilik tog' mintaqalarini qamrab olgan. Bunday omillarga shahar aholisining o'sishi, bo'sh vaqtning paydo bo'lishi, aholining moddiy daromadlari, turmush darajasining ko'tarilishi, axborot-telekommunikatsiya texnologiyalariga ustuvor ahamiyat qaratilishi, tog'larning boy va xilma-xil

resurslari to'g'risida xabardorlik va boshqalar kiradi. Ayrim joylar uchun turizm rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan omillarga jozibadorlik, borish-kelishga qulaylikni ham misol sifatida ko'rsatish mumkin.

Jozibadorlik tog'lardan turizmga foydalanishning estetik (nafosat) va rekreatsiya (dam olish) tomonlari sayohatchilar uchun tijorat va ko'ngilochar mashrutlarning keng jihatlarini belgilab beradi. Tarixan shunday vaziyat yuzaga kelganki tog' turistlari – alpinistlar, turistlar jismoniy yuklamaga intiladilar, boshqalar tog'larga salomatlik va tog' manzaralaridan bahramand bo'lish uchun boradilar [3].

Turistlarni tog'larga jalb qilishda nafaqat tog'lar tabiatining jozibadorligi, balki ularning qulay geografik hamda transport geografik o'rining qulayligi ham muhim o'rinni egallaydi. Avtomobil, temiryo'l, havo yo'llarining borish-kelishga qulayligini yaxshilash yangi texnologiyalar yoki mavjud yo'llarni yaxshilash hisobiga amalga oshiriladi. Bular turizmni rivojlantirishga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, G'arbiy Yevropada so'nggi o'n yilliklarda ko'plab tog' avtotrassalarining o'tkazish qobiliyati va samaradorligi ko'p darajada oshdi. Hozir Alp va Pireney tog'lari muhandislik va qurilish standartlarini yaxshilash, nishob tunellar va qordan himoyalash, ko'chkilarni kuzatish tizimini barpo etish tufayli har qanday transport turi uchun ochiqdir. Yaponiyada tezyurar poezdlar tizimi mamlakatning shahar markazlarini eng baland tog'lar bilan bog'laydi. Bunday misollar Shimoliy Amerikada ham mavjud bo'lib bunda estetik mulohazalar tezyurar shosselarni qurishning eng asosiy mezoni hisoblanadi: Kanadaning Banf va Djasler milliy bog'lari orqali o'tadigan Quyoshga boradigan shosse (Goingto-the-Sun High Way) Gleysyer (Montana, AQSh) va Aysfildz – Parkvey milliy bog'larini bog'laydi.

Osiyoda bir necha yil oldin harbiy "strategik" maqsadlarda qurilgan va so'ngra turizmning jadal rivojlanishiga turtki bo'lgan yo'llar quyidagilar: Pokistonda Islomobodni va Xitoydagi Qashg'arni bog'laydigan Qoraqurum shossesi, Kashmirdan Hindistondagi Lex va Ladaxx yo'li, Xitoydagi Lxasadan (Tibet) Nepaldagi Katmandu shossesi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda turizmni kengaytirish avtomobil yo'llarini barpo etishning asosiy sababi bo'lib qolishi mumkin. Masalan, Chili Patogoniyasining katta maydonlarida turizm va o'rmon xo'jaligi rivojlantirish uchun 1000 kmlik Janubiy avtostrada qurilgan.

Turizm bozori talablariga muvofiq G'arbiy Yevropada ko'plab asosiy tog' shosselari, osmador (kanat) yo'llar, kreslo ko'tarmalar (pod'emnik), mahalliy yo'llar, sayr va velosiped yo'llari keng to'riga o'tadi, hatto tog' jamoalari, o'rmonlar, pichanzorlar, cho'qqilarni birlashtiradigan shosselar vertolyot xizmatlari bilan birlashtirilib o'zaro bog'langan. Shimoliy Amerikaning g'arbida avtobus, havo transporti, avtomobil ijarasi va temir yo'l transporti xizmatlarining yaxshi muvofiqlashtirilgan to'ri mavjud bo'lib, ular turistlarga dam olish joylarini tanlashida muhim o'rinni egallaydi. Turistlar tog'larda bo'lganlarida yog'och tayyorlovchi va konchilarning eski yo'llaridan yo'lsizlikda yurish, lijalarda past-baland joylarda uchish va qorlarda konkida sayr qilish kabi faol dam olishning yangi turlaridan foydalanadilar [4].

Rivojlanayotgan mamlakatlarda shosse va temir yo'llar to'ri turizmni rivojlantirishni rag'batlantirishning muhim omili hisoblanadi. Ba'zi mamlakatlarda, masalan, Indoneziya Sulavesida shu maqsadlarda maxsus yo'llar va piyodalar yo'laklari qurilgan. Peruda tezyurar shosselar yaxshilandi, jamoat avtobus transporti xizmati Limadan to Xuarasgacha va Oq Kordileraga, Xuaskaran milliy bog'iga boradigan yo'lni xorijiy lijachi va alpinistlar uchun yaxshiladi. Shuningdek havo transporti aloqalari ham tobora o'sib borayotgan ahamiyatga ega bo'lmoqda. Masalan, hozirgi vaqtda Nepalda qator xususiy aviakompaniyalar mavjud bo'lib, ular turistlarni ilgari yaqin

yo'llardan bir necha kun tog'larga olib boradigan yo'lni kichik aviatsiya va vertolyotlarda tez va qisqa muddatda bosib o'tmoqda.

Turistlarga tog' rayonlaridagi turli joylarga va turli mavsumlarda, shuningdek, turli darajada murakkablik sharoitlarida piyoda borib kelish uchun keng imkoniyat yaratish favqulodda muhim. Buning uchun tog' so'qmoqlari va yo'laklarining qulay va keng turlarini barpo etish lozim. Barcha holatlarda borib-kelishga qulaylik yaratish turizmning faqat bitta tarkibiy qismi bo'lib marketing va axborot ham xuddi shunday ahamiyatga ega. Masalan yo'l ko'rsatkichlarining mavjudligi turistlarning dam olish joylarini tanlashining muhim omili hisoblanadi.

Tog' mintaqalarining turizm obro'si va shuhrati (brend) to'g'risidagi ma'lumotlar turistlarda mazkur joylar va ularning aholisi to'g'risida tegishli tasavvurlar paydo bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular turistlar kutgan orzu, taassurot natijalarini ifodalaydi, dam olish joylarini tanlashda muhim o'rin egallaydi. Turizm menedjerlar uchun turistlarda ijobiy taassurot qoldirishga erishish bozor salohiyatidan oqilona foydalanishning muhim strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bir marta shakllangan salbiy taassurotni bartaraf qilish juda qiyin.

Dunyo tog'lari yangi turdagi migrantlar – komfortga yo'naltirilgan migrantlar deb ataladiganlarning yashash joyiga aylanmoqda. Ularning soni ko'paymoqda va ular tog'larda uzoq vaqt qolishni istamoqdalar. Bunday migrantlar AQSh, Kanada, Chexiya, Ispaniya, Filippin, Indoneziya mamlakatlari tog' mintaqalarida ko'plab mavjud. Mazkur tog'li joylarda yangi ish joylari paydo bo'lib, ham migrantlarning o'zi, ham mahalliy aholining bandligi ta'minlangan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarda eng baland kurortlar Tyanshan tog'larida Jartash (3400 m), Beshbelgir – Arashan (3300 m), janubi-g'arbiy Pomirda Garmchashma (2800 m), Kazbek tog'larida Karmadon mineral manbalari (1500-2300 m), xorijiy mamlakatlar kurortlaridan Himolay tog'ining janubiy yonbag'irlarida Darujiling (2200 m) va Simla (2160 m), AQSh dagi Qoyali tog'larda Sanga – Fe (2130 m) hisoblanadi. O'zbekistonda eng baland Zomin sanatoriysi (2000 m) mavjud.

Sayohat uchun eng ommabop turizm mashrutlari MDH mamlakatlarida Kavkaz, Oltoy, Karpat, Kamchatka, Baykalbo'yi, Ural, Qrim, Tyanshan, Pomir-Oloy tog'larida, xorij mamlakatlarida Alp, Piriney, Apenin, Bolqon, Alyaska, Kanada, Grenlandiya, Lotin Amerikasi, Himolay tog'larida joylashgan.

O'zbekiston hududining rel'efi xilma-xilligi bilan ajralib turadi, u asosan shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa qarab ko'tariladi. Shu bilan birga, butun respublika hududining 78,7 foizini tekisliklar, 21,3 foizini tog' va tog' oldi hududlari egallaydi. Respublika doirasida er yuzasining mutlaq balandligi -12 m dan (Qizilqumdagi Mingbuloq pasttekisligi) 4643 m gacha (Hisor tizmasidagi Hazrat Sulton cho'qqisi) farqlanadi. Toshkent, Namangan, Farg'ona, Andijon, Jizzax, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari tarkibida tog'li hududlar mavjud. Tog'li hududlar respublikaning 163 ta qishloq ma'muriy tumanidan 51 tasida minimal darajada bo'lsa ham mavjud. Biroq, O'zbekistonning aksariyat ma'muriy tumanlarida tog'lar aholi yashamaydigan yoki kam aholi yashaydigan, ko'pincha kam rivojlangan zonani tashkil etadi. Aholining asosiy yoki muhim qismi bevosita tog'larda istiqomat qiluvchi tog'li hududlarga xos xususiyatlarga ega bo'lgan respublikaning qishloq ma'muriy hududlari sifatida 15 ta: Baxmal, Zomin, Forish, G'allaorol (Jizzax), Bo'stonliq, Parkent, Oxangaron (Toshkent viloyati), Dehqonobod, Kitob (Qashqadaryo viloyati), Qo'shrobd, Urgut (Samarqand viloyati), Sariosiyo, Boysun (Surxondaryo viloyati), Nurota (Navoiy viloyati) So'x (Farg'ona viloyati) tumanlarini ko'rsatish mumkin [5].

Umuman olganda, turizmni jadal rivojlantirish uchun mamlakatimizda yaratilgan shart-sharoitlar hozirning o'zida samarasini bermoqda. 2017 yilda O'zbekistonga qariyb 2,7 mln. sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 6,7 mln.gacha etdi (o'sish 2,5 marta) [6]. O'zbekiston dunyoning eng jozibali turizm maskanlaridan biriga aylanmoqda. Mamlakatimizning qulay geografik o'rni, ulkan turizm-rekreatsiya salohiyati ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb etadi. O'zbekiston atrofida eng ko'p sayohat qilishga qulay deb hisoblanadigan samolyotda uchish vaqti 5 soatgacha bo'lgan mamlakatlar soni 60 ta bo'lib, ularda 3 mlrd aholi yashaydi, ya'ni ulkan turizm bozori mavjud.

Yangi davrda Prezident farmon va qarorlarini bajarish bo'yicha tog' hududlarining rekreatsiya salohiyatidan zamonaviy asoslarda ixtisoslashtirilgan yo'nalishlarda foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Bo'stonliq tumani to'liq turizm zonasiga aylantirilmoqda. Bo'stonliq tumanining rekreatsiya resurslari g'oyat xilma-xil bo'lib, birinchi navbatda Toshkent shahri aglomeratsiyasi aholisining dam olishga ehtiyojini ta'minlashga imkon beradi. Tumanda "Chorvoq" erkin turizm zonasi tashkil etilib, faoliyat ko'rsatmoqda. O'nlab loyihalar amalga oshirilayotir. Bu erda O'zbekistonda birinchi tog' chang'i kurorti "Amirsoy" qurilib ishga tushirildi. U yil bo'yi faoliyat yuritadigan va xalqaro standartlarga javob beradigan tog' chang'isi kurortiga aylanmoqda. "Bildirsoy-Chimyon-Nanay" xalqaro kurorti, "Xo'jakent" osma dor yo'li, 29 ta mehmonxona va dam olish maskanlari qurilmoqda. "Chorvoq" suv ombori atrofida qishloqlarda ko'plab yangi dam olish maskanlari quriladi va shunga bog'liq holda mahalliy aholi uchun ko'plab ish o'rinlari hamda daromad manbalari yaratiladi. Tumanda yo'l infratuzilmasi rivojlantiriladi, suv, shamol, quyosh energiyasi manbalaridan foydalanish amalga oshiriladi, hudud to'liq sanitariya-tozalash xizmatlari bilan qamrab olindi, xulosa qilib aytganda Bo'stonliq tumani to'liq turizm zonasiga aylantirilgan O'zbekistonning turizm-rekreatsiyani rivojlantirish bo'yicha namunaviy model tog' tumaniga aylanmoqda.

Zomin tumanida istiqbolda zamonaviy turizm majmuasi, Boysun tumanida zamonaviy turizm markazini barpo etish rejalashtirilgan Pop tumani Chodak qishlog'ida turizm majmuasi barpo etilmoqda. Boshqa tog' hududlarida ham ko'plab turizm klasterlar, turizm markazlar va hududlari, turizm qishloqlari, mehmonxona va mehmon uylari, oilaviy turizm o'choqlari tashkil etilib, mazkur jarayon davom etayotir. Yengil konstruksiyali dam olish maskanlarini barpo etishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Namangan viloyati Pop tumanining tog' hududida joylashgan va turizm-rekreatsiya salohiyati va qulay iqtisodiy-geografik o'ringa ega bo'lgan qadimgi va ayni vaqtda zamonaviy Chodak qishlog'i yaqin istiqbolda nafaqat Farg'ona vodiysi, balki yangi O'zbekistonning muhim turizm-rekreatsiya markazlaridan biriga aylanadi. Farg'ona vodiysidan Toshkentga boradigan katta avtomobil va temir yo'lining Qamchiq dovoni yaqinida joylashgan ko'xna Chodak qishlog'ida so'nggi yillarda xalqaro andozalarga mos turizm- rekreatsiya markazini barpo etishga kirishildi.

Umuman, tog' hududlarida "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" va "Turizm ovuli"ga asos solinayotgani ijobiy jarayon bo'lib, sayyohlar uchun qulay sharoitlarni yaratib, hududlarni yangi qiyofada obodonlashtirish, qishloq aholisi uchun o'rinlarini barpo etib, ularning turmush darajasini oshirishga, iqtisodiyotni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tog' hududlarida turistik va rekreatsiya faoliyati o'ziga xos murakkab tog' sharoitlarida amalga oshirilishini va ularni davlatning qo'llab-quvvatlanishini hisobga olib bu borada quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

1. Tabiat va madaniyat meroslarini asrash, mamlakatimiz tog' hududlarining bir-biridan geografik, tarixiy-etnografik, ijtimoiy, iqtisodiy xususiyatlari bilan farq qilishini hisobga olib Shimoliy, O'rta, Janubiy tog' mintaqalarida turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. Tog' hududlarida tog' turizm faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash va rivojlantirish: tog' turizmi yo'nalishlari-etnografik turizm, qishloq turizmi, ekologik turizm, ekstremal turizm, tabiiy turizm va boshqalar.

3. Tog' hududlarida sportni rivojlantirish asosida ularning milliy va xalqaro sport musobaqalarini o'tkazish joyi sifatidagi ishtirokini ta'minlash.

4. Tog' hududlaridan o'tadigan murakkab va havfli turistik mashrutlarda xavfsizlikni ta'minlash.

5. Tog' hududlarida turizmni rivojlantirish va tartibga solish, turistik mashrutlarini loyihalashtirish va turizm faoliyatini amalga oshirishda tog' hududlarida yashaydigan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil, 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni.

2. Горы мира – глобальный приоритет. Редакторы Б. Мессерли. Дж. Айвз. Прев. с англ. Ред. русского изд. Ю.П.Баденков, В.М. Котляков. -М.: «Ноосфера», 1999, -С. 450.

3. Джумаев Т. Перспективы устойчивого развития горных районов Узбекистана. Изв. РАН. Сер геогр. 2002, №2, -С. 104-106.

4. Jumaev T.J. Bizning ulug'vor tog'larimiz. O'zbekiston tog' zonasining barqaror rivojlanishi. Nazariya va amaliyot. Monografiya. -Toshkent: 2021, 700-b.

5. Федорко В.Н., Курбанов Ш.Б. Некоторые аспекты социальных условий жизни населения в горных районах Узбекистана // Вестник Ошского государственного университета. –Ош: 2022, -С. 196-205.

6. www.stat.uz

REZYUME. Maqolada tog'li hududlarda turizm va rekreatsiya xo'jaligini rivojlantirishning ba'zi geografik jihatlarini ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mavjud nazariy va amaliy ma'lumotlar asosida tog'li hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha yo'nalishlar, xulosa va tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассмотрены некоторые географические аспекты развития туризма и отдыха в горных районах. Также на основе имеющейся теоретической и практической информации даются направления, выводы и рекомендации по социально-экономическому развитию горных регионов.

SUMMARY. The article considers some geographical aspects of the development of tourism and recreation in mountainous areas. Also, based on the available theoretical and practical information, directions, conclusions and recommendations for the socio-economic development of mountain regions are given.

ТАБИЯТ ҲАМ ЖАМИЙЕТ ҚАТНАСЫҚЛАРЫНДА ҚОРШАҒАН ОРТАЛЫҚТАҒЫ ЭКОЛОГИЯЛЫҚ МАШҚАЛАЛАРДЫҢ КЕСКИНЛЕСІҮ ЖАҒДАЙЛАРЫ

А.С.Нурланов – үлкен оқытушы

Әжанияз атындағы Нөкіс мәмлекетлік педагогикалық институты

Таянч сўзлар: экологик инқироз, экологик хавфсизлик, деградация, Орол денгизи, атмосфера, иқлим, ер, сув, тупроқ, хаво, ҳарорат, табиий ресурслар, тежамли фойдаланиш, санитария, туберкулёз, инфекция.

Ключевые слова: экологический кризис, экологический безопасность, деградация, Аральское море, атмосфера, климат, земля, вода, почва, воздух, температура, природный ресурс, рациональное использования, санитария, туберкулёз, инфекция.

Key words: environmental crisis, environmental safety, degradation, Aral sea, atmosphere, climate, land, water, soil, air, temperature, natural resource, rational use, sanitation, tuberculosis, infection.

Адамзатнинг табиий қоршаган орталыққа кейинги жылларда тасирининг артып барыуы жер шарының көплеген регионларында экологиялық машқалалардың кескинлесиуи артып бармақта. Соның ушын табиятты қорғау хэм табиий ресурслардан ақылға мууапық рационаллы пайдаланыу глобал масштабта инсанлар келешегі алдында турған ең әҳмийетли мәселелердин бири болып қалмақта.

Табийий орталық ХХІ әсирдин соңғы 20-жылларында илимий техникалық прогресс жетискенликлери менен куралланған өндирис күшлерининг хэм адамлардың тасири нәтийжесинде үлкен өзгерислерге ушырамақта. Халық санының тез пәт пенен өсип барыуы хэм олардың күнделикли талапларына сәйкес санаат хэм ауыл хожалығы өнимлери менен тәмийинлениуде өндирестеги прогресстинг артып барыуы, табийий орталықтағы атмосфераның, суулардың хэм жер қатламларының патасланыуына, өсимлик хэм хайуанат дүнясының кемейиуине, хәттеки бирнеше мың жыллар дауамында бузылмай киятырған табият байланысларының белгили дәрежеде өзгериуине себепши болмақта.

Буған мысал ретинде узаққа бармай үлкемиздеги Арал теңизининг курғауы менен байланыслы региондағы экологиялық шараятлардың кескинлесиу жағдайларын келтиририуимизге болады.

Президентимиз Ш.Мирзиёев БМШ ның 2017-жылы 19-сентябрде болып өткен 72-сессиясында сөйлеген баянатында «Бүгинги күннің ең өткир экологиялық машқалаларынан бири – Арал кризисине және бир мәрте дыққатыңызды қаратпақшыман. Мине, менің қолымда – Арал апатшылығы сүүретленген карта. Ой-

лаўымша, буған артықша түсиндирмениң кереги жоқ. Теңиздин курыуы менен байланыслы ақыбетлерди сапластыруу халықара көлеминдеги ис-хәрекетлерди бирлестириуди талап етпекте. Биз БМШ тәрепинен Арал апатшылығынан жәбир көрип атырған халықларға әмелий жәрдем көрсетиу бойынша усы жылы қабыл етилген арнаулы дәстүр толық әмелге асырылыуының тәрепдарымыз» [1] деб атап өткен еди.

Инсанлар тәрепинен табиятқа болған қатнасындағы өзгерислер хәзирги дәўирде сондай үлкен масштабта болды, олар табияттың раўажланыуында жүз беретугын тең салмақтықтын бузылыуына кәўип туўдырмақта. Узақ ўақытлар даўамында табият адамлар ушын зәрүр болған материаллық байлықларды таўсылмайтугын дерек сыпатында қарап келген. Таўсылатуғын ресурслар өз нәўбетинде қайта тикленетуғын хэм қайта тикленбейтуғын болып бөлинеди. Қайта тикленбейтуғын ресурслар пайдаланған ўақытқа қарағанда 100 мәрте әсте қайта тикленетуғын ямаса қайта тикленбейтуғын ресурсларды өз ишине алады. Табият ресурслары хәр қыйлы тезликте тикленеди: хайуанлар – бир нешше жылда, тоғайлар 60-80 жылда өнимдарлығын жоғалтқан топырақлар – бир нешше мың жылларда қайта тикленеди. Пайдаланыу тезилиги қайта тиклениу дәрежесинен асып кетсе онда пүткиллей жоқ болып кетиуине алып келеди.

Халықты қәўипсиз азық-аўқатлық өнимлер менен тәмийинлениуде жәмиетте жер суу ресурсларынан пайдаланыуға деген талап күшеймекте. Соған байланыслы топырақ суу ресурслары санаатлық хэм турмыслық шығындылар, нефть өнимлери, минералл төгинлер хэм пестицитлар, аўыр металлар хэм радиоактив